

BUXORODA TASAVVUF TARIQATINING KERIB KELISHI VA RIVOJLANISH DAVRI

Saburov Jaloliddin, BuxDU tadqiqotchisi

+998-90-298-00-13

saburovjalol88@mail.com

UDK:94(575/146-25):28

<https://orcid.org/0009-0003-5145-4811>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoroda tasavvuf tariqatining krib kelishi davrida ilm-fan va islom ilmlari rivoji unda ijtimoiy ma'naviy muhit va davrning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Qur'on, hadis, fiqh va tasavvuf ilmlarini o'rganishga bo'lgan rag'bat kishilar ma'naviy hayotidagi o'rni birlamchi manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Tasavvuf, Tasavvuf tariqati, ma'naviyat, ilm, ma'rifat, tasavvuf, hadis, fiqh, tafsir, insonparvarlik, madaniyat, ijtimoiy hayot, axloq.

Аннотация: В данной статье анализируется развитие науки и исламских наук ко времени прихода суфизма в Бухару, социальная и духовная среда и особенности этого периода. На основе первоисточников раскрывается мотивация изучения Корана, хадисов, фикха и мистики в духовной жизни людей.

Ключевые слова: Бухара, суфизм, суфизм, духовность, знание, просвещение, суфизм, хадисы, правоведение, толкование, гуманизм, культура, общественная жизнь, этика.

Abstrak: This article analyzes the development of science and Islamic sciences at the time of the arrival of Sufism in Bukhara, the social and spiritual environment and the specific characteristics of the period. The motivation to study Qur'an, hadith, fiqh and mysticism in the spiritual life of people is revealed on the basis of primary sources.

Keywords: Bukhara, Sufism, Sufism, spirituality, knowledge, enlightenment, Sufism, hadith, jurisprudence, interpretation, humanitarianism, culture, social life, ethics.

KIRISH (ВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

X-XII asrlarda Markaziy Osiyoda tafsir, hadis, fiqh, aqida kabi ilmlarga chuqur e'tibor qaratilishi bilan bir qatorda tasavvuf maktablariga ham asos solindi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'z navbatida tasavvuf ta'limoti Buxoro aholisining ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib borishi natijasida fan, madaniyat va adabiyot sohalarida o'ziga xos burulish yasadi.

Buxoroda tasavvuf ta'limotining tarqalishi o'z davrining yetuk so'fiy allomasi Xoja Yusuf Hamadoni (1048-1141) nomi bilan bog'liq. Yusuf Hamadoni maktabida ilmu irfon sabog'ini olgan Ahmad Yassaviy va Abduxoliq

G'ijduvoniylar mintaqada tasavvuf taraqqiyotining keyingi bosqichlarida muhim o'rin tutdilar va ikki mustaqil tariqat: Yassaviyya va Xojagon-Naqshbandiya tariqatlariga poydevor qo'ydilar.

Xojagon tariqati XIV asrga kelib, Bahouddin Naqshband tomonidan yanada takomillashtirildi. Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi yirik shaxslarning faoliyati esa Xojagon-Naqshbandiya tariqatining keyingi vakillariga ijobiy ta'sir qildi va ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun turtki bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tasavvuf jamiyat hayotida o'ziga xos islom dini targ'ibotini mustahkamlashda, odamlarni poklikka, halol mehnat qilishga, zulm va zo'ravonliklardan tiyilishga undadi. So'fiy kishilar turmush tarzi ma'naviy-axloqiy qiyofasi xalqni halimlikka, axloqiy komillikka erishishda ibrat namunasi bo'la oldi. Tasavvuf xalqni tarixning eng murakkab davrlarida mafkura bo'lib himoya qildi, ma'naviyatni yuksaltirdi. Insonlarni hurfikrlikka bag'rikenglikka, ruhiy yuksalishga o'rgatdi. So'fiy shayxlarning karomatlari xorikulodda odatlari, xalqni sharqona madaniyatning eng nozik estetik, etik jihatlarini namoyon etdi. Hukmdorlardan tortib oddiy kishilarning qalbiga kirib bordi. Ular xalqning og'irini yengil qilishga erkin yashashga, jamiyatni ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

Buxoro – islom olamining ma'rifiy qubbasi sifatida tasavvuf ilmi bilan VIII asrdayoq tanishgan. Bunga sabab islomni qabul qilish jarayonida ilmga urg'u berilganligi va bu jarayonda Abu Hafs Kabir Buxoriy (IX asr) kabi mo'tadil islom ulamolarining faoliyat ko'rsatganligidir. Shu jihatdan Buxoro amirligiga (XVIII asrga) qadar bo'lgan Buxoro tasavvuf ilmining tarixiy ildizlarini shartli *uch davrga* bo'lish mumkin:

- 1) Ilk davr (VIII-X asrlar);
- 2) Oltin davr (XII-XV asrlar);
- 3) Uzviy davr (XVI- XVIII asrlar).

Buxoro tasavvuf ilmining ilk davri(VIII-IX asrlar) tasavvuf ta'limoti bilan tanishish, o'rganish, qabul qilish va nazariy asoslarini yoritish bilan xarakterlanadi. Bunda ayniqsa Abu Bakr Muhammad binni Is'hoq Kalobodiy-Buxoriyning (X asr) faoliyati muhim o'rin tutadi [1.128]. Abu Bakr Kalobodiy Buxoro shahrining Gulobod mavzesida tug'ilgan, faoliyat yuritgan va shu yerda vafot etgan. U olim Hanafiylik mazhabi faqihi va arab tilida ilk bor tasavvuf nazariyasini tizimlashtirib bergan orifdir. Tasavvuf ilmini Shayx Qosim Forisdan (X asr) o'rgangan va uning "Ma'oni al-axbor" (Payg'ambar alayhissalom hadislarining ma'nolari) hamda "at-Ta'arruf li mazhab ahl at-tasavvuf" (Tasavvuf ahli mazhabi ta'rifi) tasavvufiy asarlari nafaqat Buxoroda, balki butun islom olamida tasavvuf nazariyasi bo'yicha muhim va asosiy qo'llanma sifatida qabul qilingan. Abu Bakr Kalobodiyning "at-Ta'arruf" asari Buxoro tasavvuf ilmining poydevori hisoblanadi [2.115]. Bu asar haqida mashhur mutassavvif Shayx Yahyo Suhravardiyning (XII asr) quyidagi so'zlari mashhur: "Agar "at-Ta'arruf" bo'lmaganida, biz tasavvuf nimaligini bilmas edik" [3.122]. Bu asarda tasavvuf nazariyasi Qur'oni karim va hadisi

shariflar asosida yoritilgan. Asar 75 bobdan iborat bo'lib, olimlar uni uch qismga bo'lib tushuntiriladi:

1. "so'fiy", "tasavvuf" kabi atamalar mazmuni va e'tirof etilgan mutasavviflar haqida ma'lumotlar. Mashhur mutasavviflar, ularning tasavvufiy jasoratlari haqida hikoya va rivoyatlar (1-4; 64-75 boblar);

2. Tasavvuf g'oyalarini tizimlashtirish va ularni asoslash, ushbu diniy aqidalarni himoya qiluvchi qismida sufiylik aqoidi usuli, mutasavviflar taqvodorligining isboti xususida kelgan. (5-30 boblar);

3. Tasavvuf amaliyoti, Ruhiy tarbiya bosqichlari va sufiylar o'rtasida qabul qilingan ba'zi atamalari. (31-63-boblar).

E'tibor berilsa, "at-Ta'arruf" tasavvuf ilmi qomusidir, shu sababli u Buxoroda yaratilgan kishida faxr uyg'otadi va bu asardan keyin Eron hamda Arab mutasavviflari Buxoroga intilgan. Abu Bakr Kalobodiyning benazir shogirdi Abu Ibrohim Ismoil binni Muhammad al-Mustamliy (XI asr) "at-ta'arruf" asariga "Sharh al-Nur ul-muridin" nomli sharh yozgan va bu bilan islom tasavvuf ilmi to'liq asoslangan. Bu asar O'zbekistonda Toshkent viloyati imom xatibi J. Raupov [4.324] tomonidan yangidan tarjima qilindi.

Abdulkarim Sam'oni (1113-1167) "Al-Ansob" ("Nasabnoma") kitobida Mustamliy haqida shunday ma'lumotlarni keltiradi: "Abu Ibrohim Ismoil Mustamliy Buxoro ahlidan bo'lib, mufassir edi. Buxoroda ko'p olimlardan ta'lim olgan. Bu kishidan ba'zi muhaddislar hadis ham rivoyat qilishgan. Faqih va muhaddis kishi edilar. Hijriy 434 (milodiy 1043) yili zulqa'da oyining o'n oltinchisida, dushanba kuni peshindan keyin vafot etgan" [5.99].

Muhokama. Buxoro tasavvuf ilmining ilk davri tasavvuf asoslarini ana shunday nazariy va amaliy dalillab berganligi bilan e'tiborga loyiq. Buxoro tasavvuf ilmining oltin davri (XII-XV asrlar) tasavvufni ommalashtirish va Xojagon – Naqshbandiylik tariqatini ta'sis etish bilan xarakterlanadi. Bu jarayon Yusuf Hamadoni (XII asr) boshlanib Xoja Ahror Valiy (XV asr) bilan nihoyalanadi. Bu davrda Yusuf Hamadoni (XII asr) "Rutbatul hayot", Abdulxoliq G'ijduvoni (XII asr) "Risola"lari va Xoja Ahror Valiy (XV asr) "Risola"lari Ali Safiyni (XV asr) "Rashohot ayn ul-hayot" asari muhim o'rin tutadi [6.53].

Bu davrda "silsilai zahab" (oltin silsila) Xojagon – Naqshbandiylik tariqati ta'sis etilgani muhim hodisadir [7.59]:

Mazkur tariqat tasavvuf nazariyasida Junayd Bag'dodiyning (vafoti 910 yil) mo'tadil irfon konsepsiyasiga asoslanadi. Junayd Bag'dodiy o'zining "Rasoil" asarida bayon qilishicha, uning konsepsiyasi quyidagi to'rt tamoyilga asoslanadi:

- 1) Odob
- 2) Suhbat
- 3) Ilm
- 4) Amal [8.135].

Bu konsepsiya Xojagon-Naqshbandiylik tariqatining nazariy asosi sifatida qabul qilingan va unga asosan Xoja Abdulholiq G'ijduvoni (XII asr) hamda Xoja

Bahouddin Naqshband (XIV asr) tomonidan tariqatning quyidagi 11 amaliy qoidasi ishlab chiqilgan:

1. Hush dar dam – qalb, nigoh va fikrni ogoh etish;
2. Nazar bar qadam – faoliyatda ogoh bo‘lish;
3. Safar dar vatan – ma’naviy va jismoniy harakatchanlik;
4. Xilvat dar anjuman – omma orasida ham Allohni nazarda tutib turish;
5. Yodkar – mudom Allohni qalbdagi zikr qilish;
6. Bozgasht – qalbdagi Alloh zikrini tilda ham takrorlab yurish;
7. Nigohdosht – tafakkurda chalg‘imaslik;
8. Yoddosht – ilm va amalni teng olib borish [9.7-11].

Naqshband qoidasi:

9. Vuqufi adadiy – zikrdan ma’no uqish;
10. Vuqufi zamoniyy – zikr vaqtida tafakkurga erishish;
11. Vuqufi qalbiy – zikrda anglangan sirni qalbdagi saqlash [10.17].

Buxoro tasavvuf ilmining bu davrini “silsilai zahab” nomiga mos ravishda oltin davr deb atash mumkin. Shuni ta’kidlash lozimki, Buxoro Tasavvuf ilmining oltin davrida umumtasavvuf ruhida ijod qilgan mutasavviflar ham bor edi. Ulardan biri Buxoro muzofotida faoliyat olib borgan va XV asrning I yarmida yashab o‘tgan Sayid Qosimiydir.

Sayid Qosimiy o‘ziga xos mutasavviflardan biri. Uning tasavvufiy qarashlarining shakllanishiga Qur’on va hadislardan tashqari ikki yo‘nalish kuchli ta’sir ko‘rsatgan: 1) umumtasavvuf vakillarining qarashlari; 2) turkiy tilli ijodkorlarning g‘oyalari. Mazkur yo‘nalishlarni alohida tahlil qilib o‘tish lozim.

Bu masalada Sayid Qosimiy hazrati Junayd Bag‘dodiy (vafoti 910 yil), Abu Bakr Shibliy (vafoti 946 yil), Muhammad G‘azzoliy (vafoti 1111) va Fariddidin Attor (vafoti 1221) tasavvufiy qarashlarini chuqur o‘zlashtirgan. U bu haqda o‘z asarlarida kichik hikoyalar keltirish bilan ishora qiladi. “Majma’ ul-axbor” (Xabarlar to‘plami) asarida “Hikoyati Shayx Junayd [11.85] rahmatullohi alayh” keltirilgan. Junayd Bag‘dodiy bir kuni abgor va xor itni ko‘rib:

Dediki: “Bu mendin erur yaxshiroq,

Piri xirod qoshida boittifoq [12.87].

It – o‘z sohibiga sadoqatli bo‘lishi bilan Junayd Bag‘dodiyda vajd uyg‘otgan edi. Shu sababli Qosimiy deydi:

Mahram esang voqifi asror bo‘l,

Gul bila gul, xor bila xor bo‘l [13.88].

Ma’lumki, Junayd Bag‘dodiy tasavvufda sahv – mo‘tadillik yo‘li asoschisi, u “zikri Qalb” kashfiyotchisi hisoblanadi. Unga ko‘ra, Haq zikri ovoz chiqarmasdan Qalbdagi aytiladi va anglangan haqiqatlar har kimga aytilmaydi. Chunki ilohiy haqiqatlarni hamma qabul qilavermaydi, uni faqat xoslar (tushunadiganlar) qabul qiladi. Bundan tashqari, Junayd Bag‘dodiy yo‘lida turli rasmiy va odatiy ta’qiqlar yo‘q, aksincha, insonni hurmat qilish bosh masala hisoblanadi. Bu xususiyatlar keyinchalik Buxoro Xojagon-Naqshbandiylilik tariqatida qabul qilinganligi ma’lum. Demak, tasavvuf va tariqatlarning Buxoroda

bardavom bo'lishligi uning uzviyligini ham asarlar osha ta'minlagan allomalar merosi orqali anglash mumkin.

Sharqshunos O.F.Akimushkin qayd etganidek, Junayd Bag'dodiyning "Rasoil" asarida Mutlaq Borliq (tavhid) va uni anglash nazariyasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, Mutlaq Borliq – bu Iloh barcha mavjudlik Undan kelib chiqadi (jam'), shu ma'noda insonning mohiyatini tashkil qiluvchi Ruhi ham Mutlaq Borlikdan ajralib chiqqan va Ruhi ana shu haqiqatni anglash uchun bu dunyoda iztirob chekadi. Ruh o'z haqiqatini anglab borgan sari turli ixtiloflardan poklanib boradi va anglangan har bir haqiqatni mutlaq haqiqat deb qabul qilavermaydi.

Sayid Qosimiy "Majma' ul-axbor" asarida "Hikoyati Shayx Shibliy alayhir rahmat"ni keltiradi. Aytishicha, bir kuni Shayx Shibliy bir kishidan bug'doy xarid qiladi va uyiga kelib qarasa bug'doy ichida bir qumursqa kelibdi. Shibliy uni bug'doy olgan joyiga olib boradi va ini yoniga qo'yadi. Sayid Qosimiy bu voqeada Shibliyni nafaqat insonga, balki chumoliga ham ozor bermaydigan kishi sifatida ko'radi. Chunki Shibliy:

Aytdi: "Muruvvatdin emas mo'ri zor,

Tushsa yiroq manzilidin dilfigor [14.88].

Sharqshunos A.D.Кныш to'g'ri qayd eganidek, Shayx Shibliy hazrati Junayd Bag'dodiy maktabiga mansub so'fiylardan biri. Ayni paytda, u hurfikir bo'lib nozik ma'noli nutqlarida va she'rlarida Mutlaq Borliq fayzini kuylagan. Samo'ni xush ko'rgan, Mansur Hallojga (vafoti 922 yil) qarshi guvohlik berishni so'raganida o'zini devonalikka solgan (chunki Shariatda devonaga chora ko'rilmaydi). Chuqur ma'noli fikrlarini jazava vaqtida aytgan (shatahiyot) va allegoriya (ishorat) bilan so'zlagan [15.89]. Aslida kelib chiqishi jihatidan hukmdordan bo'lgan (hatto Abdulkarim Samo'niy (XII asr) "Kitob ul-ansob" asarida uni hozirgi Jizzaxdan ekanligini so'zlaydi). Shibliy tasavvufda Junayd Bag'dodiy va Mansur Hallojdan keyingi eng mashhur shaxs hisoblanadi.

Sayyid Qosimiyning tasavvufiy qarashlarida chuqur iz qoldirgan shaxslardan biri Abu Hamid Muhammad G'azzoliydir (vafoti 1111 yil). U "Haqiqatnoma" asarida "Hikoyati Imom Muhammad G'azzoliy va nafs o'rnini" keltiradi:

Ma'oni bahrining durri samini,

Haqiqat ganjining ruhul –amini.

G'azzoliy ukasi Ahmad G'azzoliyga tasavvuf yo'liga kirib, Nafsidan g'olib kelishni nasihat beradi. G'azzoliy haqida G.Golditser, V.Naumkin, T.K.Ibrohim, G.Karimov va A.Sagadeev kabilar muhim tadqiqotlarni e'lon qilishgan. Misol uchun, amerikalik sharqshunos fon. G.Golditser mutafakkir Xusriyning quyidagi fikrini keltiradi: "Agar islomda Muhammad alayhissalomdan keyin yana payg'ambar chiqish mumkin bo'lganida edi, shubhasiz u G'azzoliy bo'lar edi. Shuningdek, ilmda mana bu fikr ham mashhur: Agar falokat bosib Qur'on va hadislar yo'qolib qolsa, ularni G'azzoliy asarlari asosida tiklash mumkin.

Sayyid Qosimiy tasavvufiy qarashlarining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan mutasavvuflardan biri Shayx Fariddidin Attordir (vafoti 1221). U Attorning "Ilohiynoma" asaridagi tasavvufiy ruhdagi "Ayol haqidagi hikoya"sini she'riy tarjima qilib, "Ilohiynoma" asarini yaratgan:

Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asari XIV asrdayoq turkiy tilga tarjima qilingan edi. Sayyid Qosimiy esa uning butun ijodi va qarashlaridan xabardor bo‘lgan. Demak, Attor va G‘azzoliy merosidan bahramand bo‘lgan va Buxoro tasavvufini irfon, hikmat va falsafa bilan boyitgan Sayyid Qosimiy merosi keyingi davr tasavvufiy qarashlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan va ularning uzviyligini ta’minlagan.

XIII asrda Amir Temur (1336-1405 yy.) iborasi bilan aytganda, “ko‘ngli ko‘zidek kichik bo‘lgan” mug‘ullar istilosi bu adabiyot rivojini to‘xtatib qo‘ygandi. Sayyid Qosimiy bu adabiyotni chuqur bilgan. Ana shu adabiyotning yirik vakillaridan biri Muhammad Xorazmiydir (XIV asr).

Muhammad Xorazmiy turkiy va fors tillarida ijod qilgan mutasavvif ijodkorlardan bo‘lib, u Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroycho‘kda (Saroyberkada) ham bo‘lgan. Bu yerda mazkur davlat xoni Jonibek Sultonning (Hukmronligi 1342-1357 yy.) nufuzli amirlaridan biri Muhammad Xojabekning taklifiga binoan 754/1359 yili “Muhabbatnoma” asarini yozgan. Bu asar Abu Sa’id Mirzo ibn Shohruh Mirzoning (vafoti 1469 yil) nufuzli beklaridan Jaloliddin Sayyid Mazid (vafoti 1465 yil) tomonidan 835/1432 yili uyg‘ur yozuvida ko‘chtirilgan va Sayyid Qosimiy bu bek bilan yaxshi aloqada bo‘lgan, unga bag‘ishlab “Gulshani roz” asarini yozgan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Buxoro amirligi tasavvuf ilmi tarixiy ildizining uchinchi davri uzviy davrdir (XVI-XVIII asrlar), bu davr Xojagon-Naqshbandiylik tariqatining davom etish vaqtidir. Unda Buxoro Jo‘ybor Hojalari faoliyati muhim o‘rin tutadi. Bu silsila Buxoro yaqinidagi Jo‘ybor qishlog‘idan bo‘lib, uning asoschisi Mahdumi A‘zam Kosoniyning (vafoti 1543 yil) shogirdi Xoja Muhammad Islom Jo‘yboriydir (1493-1563). Mazkur zot Xojagon-Naqshbandiylik tariqatini o‘z davri ehtiyoj va talablaridan kelib chiqib, “Meni uch sifat quvontiradi: mo‘min qalb, yoshlikdagi tavba va yoshlanuvchi ko‘z” hadisiga muvofiq targ‘ib qilgan [16.15]. Bu konseptual yondoshuvning ma’nosi quyidagicha:

1) Mo‘min qalb – har bir shaxs Qalbidagi imon nuri uni tariqatga qabul qilishga asos bo‘ladi;

2) Yoshlikdagi tavba – tariqatda yoshlikdan shaxsni qabul qilish ma’lum, biroq yoshidan qat’iy nazar oddiy fuqaro yoki shoh tavbaga yuzlansa, tavba qilsa uni tarbiyalash lozim;

3) Yoshlanuvchi ko‘z –dard cheka oluvchi har qanday kishi tariqat asoslariga xiyonat qilmaydi.

Bu o‘ziga xos yondoshuv Xojagon-Naqshbandiylik tariqati imkoniyatlarini yangi sharoitda kuchaytirdi, natijada Xoja Muhammad Islom Jo‘yboriy va uning avlodlari XVI-XVII asrlarda Buxorodagi Shayboniy hamda Ashtarxoniy hukmdorlarini Xojagon-Naqshbandiylik tariqatiga itoat ettirdi [17.188]. Shu tariqa Buxoro tasavvuf ilmi tarixiy ildizlarining Uzviy davri o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bu davr Buxoro Tasavvuf ilmiga kuchli g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatganlardan biri Boborahim Mashrabdir. (XVII asr).

Mashrabshunoslikda Boborahim Mashrabning hayoti, ijodi va faoliyatiga oid ko'p ishlar qilingan. Bu borada I.Abdullaev, A.Fitrat, N.Komilov, I.Haqqulov va J.Yusupov, H.Mo'minxonov kabilarning mehnatlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ayni paytda, keyingi paytlarda mashrabshunoslikda bemaza mulohazalar e'lon qilingan narsalar paydo bo'la boshladi. Bu hol Mashrab mansub bo'lgan tasavvuf ta'limotini yaxshi bilmaslikning xosilasidir. Shu ma'noda Mashrabning tasavvufiy qarashlari to'g'risida qisqacha fikr yuritish bilan cheklanamiz. Chunki bu masala hanuzgacha to'g'ri idrok etilgan emas va uni to'g'ri anglash mashrabshunoslikni turli steryotiplardan saqlaydi.

Tasavvufiy qarash deganda tasavvuf ta'limotiga mansub muayyan shaxsning tasavvufona falsafiy, axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qarashlari majmui tushuniladi. Har bir tasavvuf ta'limoti vakili umumtasavvufiy g'oyaga ega bo'lgan va ayni paytda, individual tasavvufiy qarashlar sohibi ham hisoblanadi. Mashrab ham ana shunday asl tasavvufiy qarashlarga ega bo'lgan shaxslardan biridir.

Mansur Halloj (858-922 yy.) o'sha mashhur "anahaq – Men Haqning zarrasiman" konsepsiyasining asoschisi. Hallojning "Kitob ut-tavosin" asarida bayon qilinishicha, insonning ruhi vujudi Mutloqqa mansub, shu sababli u anahaq deyishi mumkin. Biroq Hallojdan keyin bu konsepsiyani sevuvchilarning ko'pchiligi, jumladan Mashrab ham, zohidlar tomonidan dorga tortilgan. Ayni paytda, Xojagon-Naqshbandiylik tariqatida Mansur Hallojning anahaq konsepsiyasi komillikning bir bosqichi sifatida qabul qilingani ma'lum.

Hayrat va muhabbat bilan shuni ta'kidlash lozimki, asoschilari Yurtdoshlarimiz bo'lgan va butun dunyoga tarqalgan Xojagon-Naqshbandiylik, Yassaviylik, Kubroviylik va Mavlaviylik tariqatlarida anahaq konsepsiyasida – insonni oliy qadriyat deb bilish tushunchasi ko'tarilgan. Chunki, boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq Insonda Aql, Axloq va Ruh tuyg'usi bor. Bu uch Buyuk Tuyg'u insonni sharaflaydi, aks holda Inson eng tuban mavjudotga aylanib qoladi.

Chunki, Ishq Mashrab kabilarning "men"ligini "umummen"likka aylantirgan, bunday Komil Insonlarga dunyo matohidan avratni yopib turadigan bir parcha kiyim, ochdan o'lmaslik uchun bir burda qotgan non va tunash uchun g'aribgina bir joy kerak, bo'lgan xolos. Shu ma'noda Mashrab singrai Komil Insonlarning ovozi – umumning ovozi hisoblanadi. Buxoroda amirlik davrida mashrabxonliklar keng yoyilgan.

Nosiriddin Rabg'uziy (XIV asr) "Qisas ar - Rabg'uziy" asarida tushuntiradi: "azal kunda vujudi Mutloq husnni yuz bo'lak qilib yaratdi, undan to'qson to'qqiz bo'lagini Yusuf payg'ambarga berdi va qolgan o'n bo'lakning to'qqiz bo'lagini Momo Havoga tortiq qildi hamda so'ngi bir bo'lagini qolgan barcha mavjudotlarga bo'lib berdi". Buning ma'nosi shuki, Yerdagi mahbubalarda (mahbublarda) vududi Mutloq husnining zarrasi bor, biz bu zarra tufayli sevamiz – sevilamiz va ilohiy Ishq darajasiga qadam qo'yamiz, o'ylaymiz: yaratib qo'ygani shu qadar chiroyli (kuydurgulik) bo'lsa, Uning O'zi qanday chiroyga ega ekan?! Bu tasavvufda "al-majozu qantarar ul-haqiqat", ya'ni "majoz – haqiqatga olib boradigan ko'prikdir", -

deb ataladi. Voqean, ko'pchilik zarra husn qoshida devona bo'lib yursa, Mashrab singari Komil Insonlar mutloq husnni ma'naviy anglab kuyib yuradi:

Tushti savdoi muhabbat boshima,

Or etar mardum kelurg'a qoshima [18.90].

Chunki "mardum" – hali sevgining ilk bosqichida bo'lib, ilohiy ishq sirlarini tushunmaydi. Lekin, unutmaslik lozimki, tasavvufda dunyoviy Ishq rad etilmaydi va u ilohiy Ishq uchun muayyan bosqich hisoblanadi. Inson dunyoviy Ishqqa o'z dardini va ilohiy Ishqqa esa o'zgalar dardini izhor qiladi.

Xulosa qilinisa, Mashrabning tasavvufiy qarashlari XVIII asrgacha bo'lgan Markaziy Osiyodagi tasavvuf tajribalari bir butunlikka aylandi, Movaraunnahrda, bu o'rinda Buxoroda yaxlit tasavvufiy dunyoqarash bo'lib yuzaga keldi. Mashrabning tasavvufiy qarashlarida Xojagon-Naqshbandiylik, Yassaviylik, Kubroviylik va Mavlaviylik tariqatlarining qaymog'i o'z ifodasini topdi.

"Talovvun" – ikkilanishlar, izlanishlar va iztirob chekishlar bosqichi, "tamkin" – haqiqatni anglab, taskin topish bosqichi, "tajrid" esa dunyo matohlari va Nafs qutqularidan butunlay uzilganlik bosqichi sifatida namoyon bo'ldi.

Boborahim Mashrab Buxoro amirligi davri tasavvuf jarayoniga umumtasavvufning eng muhim jihatlarini qo'shgan va natijada XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligi kechgan tasavvuf jarayonida tasavvufning umummasalalari ham muhokama qilingan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Tasavvuf tariqatning maqsadi Alloh taoloning kalomi va Payg'ambar alayhissalomning sunnatlariga ixlos bilan amal qilishni o'rgatish va shu orqali insonni kamolotga yetkazishdir. 2017 yil 15 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan Toshkent shahrida o'tkazilgan "Ijtimoiy barqarorlikni taminlash, dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzusidagi videoselektorda aholi, ayniqsa, yoshlarni buzg'unchi g'oyalar tasiridan har tomonlama himoya qilish, ularni vatanga muhabbat, milliy-diniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy merosni har tomonlama o'rganish, ularni keng jamoatchilikka yetkazish, turli oqimlarning yot g'oyalariga qarshi asosli raddiyalar tayyorlash maqsadida Samarqand viloyatida hadis va kalom ilmi maktabi, Farg'ona viloyatida islom huquqi maktabi, Buxoro viloyatida tasavvuf maktabi, Qashqadaryo viloyatida aqida maktablarini tashkil etish bo'yicha tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

Mazkur ko'rsatmalar ijrosini taminlash maqsadida O'zbekiston musulmonlari idorasining 2017 yil 30 noyabrdagi buyrug'iga asosan Mir Arab oliy madrasasi qoshida Tasavvuf maktabi tashkil etildi.

O'zbekiston musulmonlari idorasining 2018 yil 24 yanvardagi buyrug'i bilan Tasavvuf maktabi to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan bo'lib, Maktab o'z faoliyatini mazkur Nizom asosida olib bormoqda.

Tasavvuf maktabida tinglovchilarga asosan Naqshbandiya ta'limoti o'rgatiladi. Shuningdek, yurtimizdan yetishib chiqqan va aholimiz o'rtasida keng tarqalgan, mamlakatimiz tarixida o'ziga xos ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb etgan Kubroviya, Yassaviya hamda Qodiriya tariqatlari o'rganilishiga ham alohida

e'tibor qaratiladi. Ishonamizki, ushbu sohada olib borilayotgan ishlar aholimizning ma'naviy-ma'rifiy hayotida o'zining ijobiy samaralarini beradi.

Shunday qilib, Buxoro amirligiga (XVIII asr o'rtalariga) qadar bo'lgan Buxoro tasavvuf ilmining tarixiy ildizlari ana shu uch davrda o'ziga xos tarzda mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Акамушкин О.Ф. ал-Калободи. Ислом. Энциклопедический словарь. – М.: “Наука”. 1991. –С.128
- 2.Намозов Б. Абу Бакр Калободий тасаввуфий қарашларининг фалсафий асослари.-Тошкент: Фан нашриёти, 2009.-Б.3.
- 3.Калободий А. Б. Ат-Таъарруф. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2002. –Б.115.
- 4.Акамушкин О.Ф. ал-Калободи. Ислом. Энциклопедический словарь. – М.: “Наука”. 1991. –С.128
- 5.Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий. Тарихи муллозода.Тошкент, 2009. –Б.72.
- 6.Ат-таъарруф лимазҳаби аҳли тасаввуф (тасаввуф аҳли йўли билан танишув) [матн]/ масъул муҳаррир Ж.Раупов-Тошкент:”Azmir nashr print”-2022.-324.б.
- 7.Муротов Д. Бухоролик ҳанафий ровийлар. ЎЗМУ 90 йиллигига бағишланган Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2008.-Б.58.
- 8.Абдулкарим Самъоний. “Насабнома”. “Бухоро”, 2004,-Б. 99.
- 9.Хожа Юсуф Ҳамадний. Рутбат ул-ҳаёт. Т., 2004. Хожа Абддулҳолиқ Ғиждувоний. Асарлар. –Т., 2003.-Б.45.
- 10.Хожа Аҳрор Валий. Табаррук рисоалар. –Т., 2004. Али Сафий. Рашоҳот айн ул-ҳаёт. –Т., 2005 –Б.55.
- 11.Алишер Навоий. Насайим ул-муҳаббат. // Тўла асарлар тўплами. –Т.: “Фан”. 2001.-Б. 135.
- 12.Ориф Усмон. Ғиждувоний таълимоти. –Т.: “Фан”. 2003. –Б.7-11.
- 13.Комилов Н. Тасаввуф. –Т.: “Ўзбекистон”. 2009. –Б.17.
- 14.Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: “Фан”. 1992. –Б. 85.
- 15.Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: “Фан”. 1992. –Б.93.
- 16.Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: “Фан”. 1992. –Б.123
- Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: “Фан”. 1992. –Б.123
- 17.Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: “Фан”. 1992. –Б. 201.
- 18.Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. –Б.15.
- 19.Акимов О.А. Нақшбодийа. Ислом. Энциклопедический словарь. – М.: “Наука”. 1991. –С. 187-188.
20. Иванов П.П. Хозяйство Джуйбарских шейхов: к истории феодального землевладения в Средней Азии в XVI-XVII вв. М-Л.: “Наука” 1954.
- 21.Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. –Б.15.